

HARBIY XIZMAT VA YOSHLAR: MAJBURIY XIZMATGA MUNOSABATNING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Mirzaxamdamova Odina Mirzoxid qizi

Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti Sotsiologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning majburiy harbiy xizmatga bo‘lgan munosabati sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda harbiy xizmatning ijtimoiy mazmuni, yoshlar ongida ushbu xizmatning tutgan o‘rni, uni ijtimoiy institut sifatida qanday qabul qilinayotgani hamda bunga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rganiladi. Shuningdek, yoshlarning harbiy xizmatga tayyorgarligi, xizmatdan qochish holatlari, ijtimoiy tarmoqlardagi ta’sirlar, oilaviy va madaniy muhitning roli keng tahlil qilinadi. Maqola O‘zbekiston yoshlari orasida olib borilgan so‘rovlari, ilmiy adabiyotlar tahlili va ekspertlar fikriga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmat, yoshlar, ijtimoiy institut, sotsiologik tahlil, fuqarolik burchi, vatanparvarlik, gender farqlari, ijtimoiy motivatsiya, axborot ta’siri, milliy xavfsizlik.

Zamonaviy ijtimoiy tuzumlarda harbiy xizmat nafaqat mamlakat xavfsizligini ta’minalash vositasi, balki jamiyat fuqarolarini, ayniqsa yoshlarni ijtimoiylashti rishning muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmat majburiy xarakterga ega bo‘lib, har bir erkak fuqaroga taalluqli burch hisoblanadi. Shu bilan birga, yoshlarning bu xizmatga bo‘lgan munosabati yildan-yilga turlicha shakllanmoqda. Ba’zilar uni faxr, mas’uliyat va vatanparvarlik belgisi sifatida qabul qilsa, boshqalar uni majburiyat, vaqt isrofoti yoki hayotdagagi rejalgaga to‘sqinlik qiluvchi omil deb biladi.

Maqolada shu ziddiyatli munosabatlarning sotsiologik ildizlari, ularga ta’sir qiluvchi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va psixologik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – harbiy xizmatga yoshlarning munosabatini kompleks yoritish hamda bu munosabatni shakllantiruvchi asosiy omillarni aniqlashdir.

Harbiy xizmat sotsiologik nuqtai nazardan o‘ziga xos ijtimoiy institutdir. U milliy xavfsizlik, fuqarolik burchi, vatanparvarlik g‘oyalari asosida jamiyatning muayyan tartibini ta’minalaydi. Shuningdek, u shaxsiy intizom, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik, jamoada ishlash, buyruqni bajarish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Ushbu institut yoshlarni ijtimoiy tizimga integratsiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Harbiy xizmat orqali yoshlar o‘zlarining milliy, fuqarolik va erkaklik identitetlarini shakllantiradilar. Shu bois, sotsiologlar tomonidan harbiy xizmatga bo‘lgan munosabat – yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasi, qadriyatları va ijtimoiy kapitalining aksidir deb hisoblanadi.

Yoshlarning harbiy xizmatga bo‘lgan munosabati ijtimoiy tabaqa, hududiy farq, ta’lim darajasi, oila holati, jins, axborot maydoni bilan qamrab olinganlik darajasiga qarab

sezilarli farqlanadi. Qishloq hududidagi yoshlar ko‘pincha harbiy xizmatni erkaklik belgisi sifatida ko‘rsalar, shaharlik yoshlar bu davrni kar’era rejalarini va shaxsiy rivojlanishga xalaqit beruvchi omil deb bilishlari mumkin.

Sotsiologik so‘rovlardan shuni ko‘rsatadiki, o‘rtalama ta’limni tugatgan yoki oliy ta’limga kira olmagan yoshlar harbiy xizmatni o‘zlarini ijtimoiy jihatdan namoyon qilish vositasi sifatida qabul qilishadi. Aksincha, oliy ta’lim olayotgan yoki xorijda o‘qish niyatida bo‘lganlar uni to‘sinqinlik deb bilishadi. Gender jihatdan olib qaraganda, erkak yoshlar harbiy xizmatni ko‘proq erkaklik va mas’uliyat ramzi sifatida ko‘rsalar-da, ayollar ushbu xizmatni hayot xavfsizligiga tahdid deb baholashadi.

Vatanparvarlik harbiy xizmatning asosiy g‘oyaviy asoslaridan biridir. Lekin bugungi kunda yoshlar ongidagi vatanparvarlik tasavvuri ko‘p hollarda shaklan emas, balki mazmunan zaifroq ifodalangan. Bu esa jamiyatda mafkura viy bo‘shliq, axborot oqimi va g‘arbona qadriyatlarning kuchayishi bilan bog‘liq.

Sotsiologlar ta’kidlashicha, vatanparvarlik faqat shior emas, balki amaliy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Harbiy xizmatni tanlash – yoshlar uchun aynan shunday amaliy namoyondir. Bu yo‘lda davlatning harbiy targ‘ibot siyosati, ommaviy axborot vositalarining roli, mакtab va oliy ta’lim muassasalarida vatanparvarlik ruhidagi ta’lim tizimi katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston sharoitida ayrim yoshlar harbiy xizmatdan qochishga urinishmoqda. Bu holatni sotsiologik tahlil qilganda, asosiy sabablar sifatida quyidagilar ajratiladi:

- iqtisodiy muammolar va xorijga migratsiya istagi;
- kar’era rejalarini bilan mos kelmaslik;
- sog‘liq bilan bog‘liq muammolar (ba’zan soxta tibbiy ma’lumotnomalar orqali);
- xizmatda zo‘ravonlik va muomala madaniyati pastligi haqidagi salbiy mishmishlar;
- ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan salbiy kontentlar.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun shaffoflikni ta’minalash, xizmatdagi sharoitlarni yaxshilash, ruhiy va psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish, ijtimoiy kafolatlarni kuchaytirish lozim.

Bugungi kunda yoshlar harbiy xizmat haqida aksariyat hollarda ijtimoiy tarmoqlar orqali xabardor bo‘lishmoqda. Bu esa ko‘pincha noto‘g‘ri, salbiy yoki biryoqlama ma’lumotlar bilan shakllanayotgan fikrlarning ildiziga aylanmoqda. Masalan, TikTok, Telegram yoki Instagram orqali tarqalayotgan “harbiy xizmatda qiyngagan yigit” haqidagi videolar, hatto montajlangan kontentlar, yoshlarning ongiga salbiy ta’sir qilmoqda.

Bundan tashqari, harbiy xizmatga oid rasmiy, ijobiy kontentlarning kamligi yoki samarasizligi ham muammoli vaziyatni chuqurlashtiradi. Sotsiologlar fikricha, ijtimoiy tarmoqlarda harbiy xizmatni ijobiy, zamonaviy, o‘qituvchi va kasbga tayyorlovchi tizim sifatida ko‘rsatish – yoshlarning unga bo‘lgan ishonchini tiklashda muhim omildir.

Ko‘plab sotsiologik tadqiqotlar yoshlarning harbiy xizmatga bo‘lgan motivatsiyasini 3 asosiy toifaga ajratadi:

1. **Ichki motivatsiya:** vatanparvarlik, mas’uliyat, erkaklik burchi, o‘zini sinab ko‘rish istagi.

2. **Tashqi motivatsiya:** xizmatdan keyin ishga joylashish imtiyozlari, harbiy xizmat tajribasining kar’era uchun foydali bo‘lishi.

3. **Majburiylik motivatsiyasi:** qonuniy majburiyat, jazodan qo‘rquv, bosimlar.

Davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri – ichki motivatsiyani rag‘batlantirish, tashqi motivatsiyani kuchaytirish, majburiylik omilini esa ijobjiy yo‘nalishga yo‘naltirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Majburiy harbiy xizmat yoshlar hayotida muhim bosqich bo‘lib, uning ijtimoiy qabul qilinishi va ijobjiy baholanishi jamiyat barqarorligining muhim indikatorlaridan biridir. Sotsiologik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda yoshlarning ushbu xizmatga bo‘lgan munosabati keskin farq qilmoqda. Bu farqlarni kamaytirish, xizmatga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash uchun tizimli choralar zarur. Shu jumladan, vatanparvarlik g‘oyasini mustahkamlash, ijtimoiy tarmoqlarda ijobjiy kontent yaratish, xizmatdagi sharoitni takomillashtirish va yoshlarning motivatsiyasini kuchaytirish orqali ushbu institutning ijtimoiy qadriyat sifatidagi nufuzini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tilly, C. (1992). *Coercion, Capital, and European States*. Blackwell Publishers.
2. Huntington, S. (1957). *The Soldier and the State*. Harvard University Press.
3. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi rasmiy ma’lumotlari — www.mod.uz
4. Karimov, I. (1996). *Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir*. Toshkent.
5. Mamajonov, A. (2022). “O‘zbekistonda harbiy xizmatga yoshlarning munosabati: empirik tadqiqot natijalari.” *Sotsiologiya va yoshlar*, №4.
6. Sharifxo‘jayev, D. (2023). “Ijtimoiy tarmoqlar va harbiy xizmat imiji.” *Axborot jamiyati*, №3.
7. G‘ulomov, Z. (2021). “Yoshlarning ijtimoiy institatlarga ishonchi: harbiy xizmat namunasi.” *Sotsiologik tadqiqotlar jurnali*, №1.